



“OILA VA XOTIN-QIZLAR” ILMY-TADQIQOT INSTITUTI

OILA, XOTIN-QIZLAR VA IJTIMOIY HAYOT

elektron ilmiy jurnal

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan. “Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.

TAHRIR HAY'ATI RAISI:

EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

NARBAYEVA Tanzila Kamalovna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich – *tarix fanlari doktori, professor.*

KARAMYAN Marietta Xachaturovna – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

MUSLIMOV Narzulla Alixanovich – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

NURMATOVA Mukharram Axmedovna – *falsafa fanlari doktori, professor.*

NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich – *yuridik fanlari doktori, professor.*

RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

SODIQOVA Shohida Marhobayevna – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Эгамбердиева Нодира Мелибаевна (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

Нарбаева Танзила Камаловна – доктор социологических наук, профессор.

Мусурманова Айниса Мусурмановна (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

Абдураманов Хамид Худайбергенович – доктор экономических наук, профессор.

Бегимкулов Узокбай Шоимкулович – доктор педагогических наук, профессор.

Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ – доктор социологических наук, доцент.

Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ – доктор исторических наук, профессор.

Карамян Мариэтта Ҳачатуровна – доктор психологических наук, профессор.

Муслимов Нарзулла Алиханович – доктор педагогических наук, профессор.

Нурматова Мукхаррам Ахмедовна – доктор философских наук, профессор.

Нарматов Нуриддин Соатмурадович – доктор юридических наук, профессор.

Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна – доктор юридических наук, доцент.

Сайдивалиева Хуршида Ҳоджиакбаровна – доктор философии юридических наук (PhD).

Содикова Шоҳида Мархобаевна – доктор социологических наук, профессор.

Зоҳидов Азаматжон Аъзамович – доктор экономических наук, профессор.

THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:

Egamberdiyeva Nodira Melibayevna (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

Narbayeva Tanzila Kamalovna – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

Musurmanova Aynisa Musurmanovna (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Abduramanov Khamid Khudaybergenovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

Ishkuvatom Valikhul Turdiyevich – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

Karamyan Marietta Khachaturovna – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

Muslimov Narzulla Alixhanovich – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

Nurmatova Mukharram Akhmedovna – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

Narmatov Nuriddin Soatmuradovich – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

Sodikova Shohida Markhobayevna – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

Zokhidov Azamatjon Azamovich – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

SOTSIOLOGIYA

Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B. Gender yondashuv asosida yoshlarni kasbga yo‘naltirishning ijtimoiy-iqtisodiy masalalari..... 4

Jurayeva Sh.S. Globallashuv sharoitida migrantsion munosabatlarning oilalar barqarorligiga psixologik ta’siri..... 14

OILA VA JAMIYAT

Nurullayeva U.N. Xotin-qizlarga nisbatan oiladagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlari: sabab va oqibatlar, yechim yo‘llari 22

Kurbanov E.E. Yangi O‘zbekistonda demokratik islohotlarning nazariy-siyosiy evolyutsiyasi 34

Tashkenbayeva D.B. Turmush o‘rtog‘i nogiron yoki ruhiy kasal bo‘lgan ayollar bilan ishlash bo‘yicha metodik tavsiyalar 44

PSIXOLOGIYA

Abdusamatov X.U., Sharapova D.B. Uy bekasi sindromining oldini olish bo‘yicha psixologik tavsiyalar 53

Odilbekov M.M. Turmush o‘rtog‘i vafot etgan ayollar bilan psixologik ishlash mexanizmlari 65

Abduraxmonova F.A. Turmush o‘rtog‘i bedarak yo‘qolgan ayollar bilan ishlash bo‘yicha psixologik tavsiyalar 74

Sa’dullayeva J.I. Turmush o‘rtog‘i jazo muddatini o‘tash muassasasidagi ayollar bilan ishlashda psixologik tavsiyalar 84

MAHALLA VA OILA HUQUQI

Alimov S.K. Mamlakatimizda tazyiq va zo‘ravonlik holatlaridan jabrlangan ayollarga yordam berish tizimining huquqiy tahlili..... 92

PEDAGOGIKA

Yakubov O. Ta’limda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari 99



Jurayeva Shaxnoza Saadmuratovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi

GLOBALASHUV SHAROITIDA MIGRATSION MUNOSABATLARNING OILALAR BARQARORLIGIGA PSIXOLOGIK TA’SIRI

Annotatsiya. Zamonaviy mehnat migratsiyasi migrantlar oqimining ko‘payishi, ayollar va bolalar sonining ortishi, yangi mehnat migratsiyasini qamrab olish kabi jihatlar bilan ajralib turadi. XXI asrda migratsiya va mehnat migratsiyasi masalalari bilan bir qatorda migratsiyaning oilalar farovonligiga ta’siri muammozi ham o‘z dolzarbligini namoyon etmoqda. Maqolada migratsiya jarayoni psixologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilinib, oilalar barqarorligida migratsion munosabatlarning o‘rnini bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari havola etiladi.

Аннотация. Современная трудовая миграция характеризуется такими аспектами, как увеличение потока мигрантов, увеличение числа женщин и детей, включение новой трудовой миграции. В XXI веке, наряду с вопросами миграции и трудовой миграции, свою актуальность показывает проблема влияния миграции на благосостояние семей. В статье анализируется миграционный процесс с психологической и социальной точки зрения, а также представлены результаты исследования роли миграционных отношений в стабильности семьи.

Annotation. Modern labor migration is characterized by such aspects as the increase in the flow of migrants, the increase in the number of women and children, and the inclusion of new labor migration. In the 21st century, along with the issues of migration and labor migration, the problem of the impact of migration on the well-being of families is showing its urgency. The article analyzes the process of migration from a psychological and social point of view, and presents the results of research on the role of migration relations in the stability of families.

Tayanch so‘zlar: migratsiya, psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar, globallashuv, moslashish, shaxs, inqiroz, mehnat migratsiyasi, madaniyat, immigrant, psixologik salomatlik, farovonlik, oila, integratsiya.

Ключевые слова: миграция, психологическая среда, межличностные отношения, глобализация, адаптация, личность, кризис, трудовая миграция, культура, иммигрант, психологическое здоровье, благополучие, семья, интеграция.

Keywords: migration, psychological environment, interpersonal relations, globalization, adaptation, person, crisis, labor migration, culture, immigrant, psychological health, well-being, family, integration.

Kirish. Bugungi globallashuv sharoiti dunyoda migratsiya jarayonlarini tobora keskinlashtirmoqda va bunga aholining o‘sish sur’ati, turli mintaqalardagi siyosiy inqiroz va harbiy nizolarning vujudga kelishi, ayrim davlatlarda ro‘y berayotgan tabiiy va texnogen xususiyatdagi ofatlar, global pandemiya sharoiti, rivojlanayotgan mamlakatlarda ish o‘rinlarining yetishmasligi, ish haqining insonlar kundalik ehtiyojini qondirish darajasidan pastligi, yoshlar orasidagi ishsizlikning yuqoriligidicha qolayotgani kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilda dunyoning turli mamlakatlarida yashayotgan migrantlar soni 281 milliondan oshgan. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda 2,5 millionga yaqin fuqaro mehnat migratsiyasida bo‘lgan bo‘lsa, 2021-yilda mamlakatimizdan xorijda vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirgan mehnat migrantlari soni 1,5 mln nafardan ziyod kishi (1540938 nafar)ni tashkil etgan.

Bu, o‘z navbatida, mamlakatimizda tashqi mehnat migratsiyasi jarayonini huquqiy ta’minalash, vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakatdan chiqib ketayotgan fuqarolarimizni xorijda ishga joylashtirish, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligini ta’minalash, xorijdan mehnat faoliyatini amalga oshirib qaytgan fuqarolarni reintegratsiya qilish va bandligini ta’minalash, shuningdek, ularning sog‘lig‘ini muhofaza qilish kabi vazifalarini samarali tashkil etishni taqozo qiladi¹. Bugun dunyoda migratsiyada ishtirok etayotganlarning soni keskin oshib borayotganini kuzatar ekanmiz, yaqin kelajakda ularning soni yanada ortishi bashorat qilinayotgani bejiz emas. Migratsiya ko‘لامи kengayishiga kambag‘allik, ishsizlik, inson huquqlarining poymol qilinishi, kelajakka nisbatan umidsizlik va tushkunlikka tushish, turli xil nizolar, urushlar tufayli notinchlik, qo‘rquv

**Birlashgan
Millatlar
Tashkilotining
ma’lumotlariga
ko‘ra, 2020-yilda
dunyoning turli
mamlakatlarida
yashayotgan
migrantlar soni
281 milliondan
oshgan.**

¹ Отажонов А.А. Ўзбекистонда меҳнат миграцияси соҳасида кадрларни тайёрлаш ва уларнинг малакасини оширишга доир айrim масалалар // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. – № 1. (2022) – Б. 116–121.

kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Migrantlar o‘z tabiatiga ko‘ra jamiyatning ishbilarmon va harakatchan a’zolari hisoblanadi.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, migratsiya iqtisodiy o‘sishga, millatlarning assimilyatsiyalashuviga, marginal madaniyatlar boyishiga olib kelgan. Migratsion jarayonlarni tahlil etishda uning muhim muammolari mavjudligini ham inobatga olish zarur. Xususan, aksariyat hollarda migrantlar ekspluatatsiya qilinib, ularning huquqlari poymol etiladi. Migrantlarning joylashgan mamlakatlari madaniyati va turmush tarziga moslashuvi, integratsiyalashuvi qiyin kechadi. Ularni qabul qilayotgan davlatlar tub aholisini ish joyidan mahrum etadi. Bu esa, o‘z navbatida, mahalliy aholining migrantlarga nisbatan salbiy munosabatini shakllantiradi. Ushbu va boshqa ko‘plab sabablarga ko‘ra, migratsiya muammosini har tomonlama, shu jumladan, siyosiy-sotsiologik jihatdan ham o‘rganish talab qilinadi.

**Migratsiya
dunyoning
barcha qismidagi
odamlar orasida
keng tarqalgan
hodisa bo‘lib,
dunyodagi deyarli
7 kishidan 1 nafari
xalqaro yoki ichki
migrantdir.**

Asosiy qism. Mamlakatimizda, statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 275,1 mingta ko‘chib ketganlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga ko‘chib ketish koeffitsiyenti 7,9 promille tashkil etgan hamda 2020-yilga nisbatan 2,0 promillega oshgani kuzatilgan (2020-yilning yanvar-dekabr oylarida 5,9 promille bo‘lgan). Bundan ko‘rinadiki, O‘zbekistonda 2021-yilda ko‘chib ketish koeffitsiyenti qariyb 3 baravarga pasaygan. 2000–2020-yillarda O‘zbekistondan 1 107 854 nafar fuqaro xorijiy davlatlarga doimiy yashash uchun chiqib ketgan². Yuqorida keltirilgan raqamlar va fikrlardan migratsiya jarayoni nafaqat ish topish yuzasidan boshqa davlatga yoki shaharga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan shaxslarga, balki ularning farzandlari, yaqin qarindoshlari, shuningdek, ular istiqomat qilayotgan muhitga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Shu jihatdan olib qaraganda, migratsion munosabatlarning nafaqat iqtisodiy, siyosiy, balki ijtimoiy, ma’naviy, psixologik tabiatini o‘rganish hamda mazkur jarayonning bugungi kun oilalaridagi barqarorlik, farovonlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini tadqiq etish ham dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Migratsiya dunyoning barcha qismidagi odamlar orasida keng tarqalgan hodisa bo‘lib, dunyodagi deyarli 7 kishidan 1 nafari xalqaro yoki ichki migrantdir. Xalqaro migratsiya bo‘yicha global komissiyaning yaqinda e’lon qilgan hisobotiga ko‘ra, bugungi kunda xalqaro miqyosda 200 millionga yaqin muhojir bor, ularning qariyb 60 foizi rivojlangan mamlakatlarda, qolgan 40 foizi rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. So‘nggi yillarda migratsiya shu qadar xilma-xil bo‘lib

² <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17361-demografik-holat-2021-yil-yanvar-dekabr>.

ketdiki, migratsiyani o‘rganish mashhur sohalardan biriga aylandi³.

Migratsiya aholi harakati bo‘lib, uning uzunligi, tarkibi va sabablaridan qat’i nazar, odamlarning har qanday harakatini qamrab oladi. Migratsiya qochqinlar, ko‘chirilganlar, iqtisodiy muhojirlar va boshqa maqsadlarda, shu jumladan, oilalarni birlashtirish uchun ko‘chib o‘tayotgan shaxslarning migratsiyasini o‘z ichiga oladi.

Mehnat migratsiyasi migratsiyaning keng tarqalgan shakllaridan biridir. Mehnat migratsiyasi odamning o‘zini ish bilan ta’minalash maqsadida o‘z uyidan yangi joyga ko‘chishini anglatadi. Garchi mehnat migratsiyasi ichki yoki tashqi bo‘lishi mumkin bo‘lsa-da, tashqi yoki xalqaro mehnat migratsiyasi ichki mehnat migratsiyasidan ko‘p bo‘lgani uchun bugungi kunda e’tiborni tortmoqda. Bugungi kunda butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlar ko‘chada yig‘im-terim kabi oddiy mehnatdan tortib, kompyuter dasturlashgacha bo‘lgan ishlar bilan shug‘ullanmoqda. Birgalikda ularning soni sayyoramizdag‘i aholi soni bo‘yicha beshinchli o‘rindagi mamlakatga teng bo‘ladi⁴.

Immigrant yangi yashash joyiga kelganida nima bo‘ladi? Inson hayotining u psixologik jihatdan “o‘sgan” va uning mikrokosmosini tashkil etgan avvalgi holati yo‘q bo‘lib ketadi yoki shunchaki yo‘qoladi, ko‘plab to‘siqlar va muammolarga to‘la, insonga noma’lum bo‘lgan mutlaqo yangi ijtimoiy vaziyat yuzaga keladi. Shunday qilib, inson yangi dunyoga va yangi sharoitlarga moslashishga harakat qiladi. U yangi joyda unga tushadigan katta axborot oqimi bilan kurashish, ko‘plab yangi aloqalarni o‘rnatish, o‘zi duch kelgan yangi voqelikka o‘z munosabatini bildirish va baholash tizimini rivojlantirish, yangi harakatlar algoritmlarini ishlab chiqish kabilarga duch keladi. Bu orqali shaxs yangi sharoitda eskisi ko‘pincha samarali bo‘lishdan to‘xtaganini his eta boshlaydi.

Tadqiqotchi N.S.Xrustalyova yangi ijtimoiy-madaniy muhitda migrantlar boshidan kechirgan ruhiy jarohatlar mavjudligini ta’kidlab, oila a’zolarini sog’inish, ijtimoiy mavqeyini yo‘qotish va o‘zini o‘zi qadrlash hissining pasayishi, o‘z imidjini o‘zgartirish, o‘zini anglashdagi chalkashlikning paydo bo‘lishi, shuningdek, aybdorlik hissining keskin ortishi kabi turlarga bo‘lib o‘rganadi. O‘z vatanida kechinmalarning chuqurligi insonning yangi jamiyatdag‘i ijtimoiy farovonlik darajasiga bog‘liq bo‘lib, bular shaxsning individual tipologik xususiyatlaridan,

*Immigrant yangi
yashash joyiga
kelganida uning
mikrokosmosini
tashkil etgan
avvalgi holati yo‘q
bo‘lib ketadi*

³ Global commission on International Migration (2005). Migration in an interconnected world: New Directions for action. – Geneva: Switzerland.

⁴ Karadogan S. Effects of Globalization on International Labor migration. Retrieved from: <https://www.academia.edu/5067214/> Effects of globalization on international labor migration.

kasb turi va kasbiy o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlaridan kelib chiqadi. Ushbu uchta mezonga asoslanib, N.S.Xrustalyova turli yo‘llar bilan nostalgiya tuyg‘usini boshdan kechiradigan migrantlarni 4 guruhga ajratadi⁵:

“Kosmopolit” migrantlar ziddiyatlari, o‘zlarining do‘sstlari va oila a’zolariga qanday qilib “g‘amxo‘rlik qilishni” bilmaydi va ko‘pincha psixologik izolyatsiyada bo‘lishni afzal biladi.

1. “Amaliy” migrantlar. Ular moddiy va maishiy sharoitdan yuqori darajada qoniqish hosil qiladi. Bu odamlar uchun qadriyatlarning iyerarxik tuzilishida quyidagilar muhim ahamiyatga ega: jismoniy xavfsizlik hissi, “dunyonи ko‘rish” imkoniyati, oilani zarur moddiy ne’matlar bilan ta’minalash. Migrantlarning ushbu guruhidagi ijtimoiy farovonlikka, ularning past ijtimoiy mavqeyi va kasbiy istiqbollari yo‘qligi ta’sir qilmaydi. Keljakka ishonch, ko‘pincha ular bilan faqat keljakda yangi jamiyat ta’minalay oladigan ijtimoiy va moddiy xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘ladi. Ushbu guruh migrantlari odatda shaxsiy da’volarning past darajasiga ega.

2. “Kosmopolit” migrantlar. Ular professional va ijtimoiy da’volarning yuqori darajasiga ega bo‘lib, ularni bu da’volar qaysi davlatda amalga oshishi mumkinligi bilan qiziqtirmaydi. Bu turdagи migrantlar ziddiyatlari, o‘zlarining do‘sstlari va oila a’zolariga qanday qilib “g‘amxo‘rlik qilishni” bilmaydi va ko‘pincha psixologik izolyatsiyada bo‘lishni afzal biladi. Biroq bu ular uchun kuchli psicho-travmatik omil emas, chunki ularning ijtimoiy farovonlik darajasi yangi jamiyatda egallagan maqomi va roliga bog‘liq. “Kosmopolitlar” yangi lingvistik va ijtimoiy-madaniy muhitni yaxshi va tez o‘zlashtiradi, qisqa vaqt ichida professional martabaga erishadi, ular yaqinlarini sog‘inish hissi bilan deyarli “kasal bo‘lmaydilar”.

3. “Refleksiv” migrantlar. Bu kabi migrantlar ishga, hamkasblarga, ularning sobiq muhitiga nisbatan hissiy munosabati bilan ajralib turadi. Ular odatdagи do‘sliklarini, oilaviy va professional munosabatlarini yo‘qotib, o‘tkir ijtimoiy noqulaylik tuyg‘usini boshdan kechiradi. Ularning hayotdan qoniqishi nafaqat ijtimoiy va kasbiy farovonlik darajasiga bog‘liq, balki hayotiy strategiyalarini qurishda psixologik farovonlik juda katta rol o‘ynaydi. Ushbu turdagи migrantlar psixologik jarohatlarni qanchalik kam boshdan kechirishsa, ularning nostalgik tajribalari shunchalik kuchli bo‘ladi.

4. “Ijodiy” migrantlar. Bu guruh vakillari o‘z ishlarining ahamiyatini hayotning asosiy ma’nosи darajasida baholaydilar. Bular shoirlar, yozuvchilar, jurnalistlar, musiqachilar, rassomlar, qo‘sishchilar,

⁵ Хрусталева Н.С. Психология миграционных процессов // Психология кризисных и экстремальных ситуаций: психическая травматизация и ее последствия. – Санкт-Петербург.: Изд-во СПбГУ, 2014. – С. 325–349.

raqqosalar, kinematograflar, o‘qituvchilar, dizaynerlar, ya’ni faoliyati shaxs bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan har qanday kasb egalari bo‘lishi mumkin. Agar muhojirlilik sharoitida ular sevimli ishini yo‘qotsa, o‘sha mamlakatda qolish ular uchun barcha ma’noni yo‘qotadi va shaxsiy halokatga olib keladi.

So‘nggi paytlarda migratsiyani millatlararo va etnik-diniy nizolarni o‘rganish tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Millatlararo va harbiy mojarolarning kuchayishi qochqinlar va ichki ko‘chirilganlar sonining ko‘payishiga olib keladi. Shuning uchun bu guruhlar ko‘plab ilmiy ishlarning obyektiga aylanadi. G.U.Soldatova va L.A.Shaygerov Rossiyadagi majburiy muhojirlarning ijtimoiy va psixologik moslashuvi bo‘yicha ko‘p yillik tadqiqotlar olib borgan. Ular tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning metodologik asosi sotsial-madaniy yondashuv bo‘lib, u akkulturatsiya nazariyasi, ijtimoiy o‘ziga xoslik tushunchasi, millatlararo keskinlik va nizolar tushunchasi, etnopsixologik tadqiqotlar, g‘arbiy madaniyatlararo psixologiyadagi vaziyatlar va shu kabi boshqa tushunchalarga asoslanadi. Ularning ilmiy izlanishlarida majburiy migrantlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, boshdan kechirgan jarohatlari va stressni yengishning o‘ziga xos xususiyatlari, qabul qiluvchi jamiyat bilan munosabatlarning tabiatini va boshqalar batafsil bayon etilgan⁶.

Migrantlarga psixologik yordam ko‘rsatish masalalari turli adabiyotlarda keng ko‘rib chiqilgan. Psixologlar maxsus treninglarni (etnik-madaniy kompetensiya, bag‘rikenglik va boshqalar) rivojlantirish texnologiyalariga murojaat qilishadi⁷. T.G.Stefanenko madaniyatlararo o‘zaro ta’sirni optimallashtirishning samarali usuli bo‘lgan madaniy assimilyatorlarning modellarini (madaniyatlararo sezgirlikni oshirish texnikasi) tavsiflaydi⁸. G.U.Soldatova va L.A.Shaygerova majburiy migrantlar eng ko‘p psixologik, ijtimoiy ko‘makka muhtoj bo‘lganliklari sababli mazkur guruh a’zolariga mo‘ljallangan psixologik yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘z dasturlarini taklif qiladi⁹.

*So‘nggi paytlarda
migratsiyani
millatlararo
va etnik-diniy
nizolarni o‘rganish
tobora dolzarb
bo‘lib bormoqda.
Millatlararo
va harbiy
mojarolarning
kuchayishi
qochqinlar va ichki
ko‘chirilganlar
sonining
ko‘payishiga olib
keladi.*

⁶ Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. Психологическая адаптация вынужденных мигрантов // Психологический журнал, 2002. – Т. 23. – № 4. – С. 66–81.

⁷ Почебут Л.Г. Взаимопонимание культур: методология и методы этнической и кросс-культурной психологии. Психология межэтнической толерантности. – Санкт-Петербург.: Изд-во СПбГУ, 2005. – 281 с.

⁸ Стефаненко Т.Г. Этнопсихология: практикум. – Москва: Аспект Пресс, 2006. – 208 с.

⁹ Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. Групповая работа с вынужденными мигрантами: тренинги толерантности, позитивного взаимодействия и социокультурной адаптации // Психология беженцев и вынужденных переселенцев: опыт исследований и практической работы. – Москва: Смысл, 2001. – С. 208–224.

***Migratsion
jarayonlarning
oilaviy barqarorlik
darajasiga ta'siri
farzandlar
va ota-on
munosabatlarida
yaqqol ko'zga
tashlanadi. Yaqin
insonlarining
boladan
uzoqlashishi
nafaqat uning
ruhiy holatiga,
balki o'qishi,
turmush tarzi,
shuningdek
jismoniy holatiga
ham salbiy ta'sir
ko'rsatar ekan.***

Bugungi kunda migratsion jarayonlar kesimida bolalar va o'smirlarning ijtimoiy-psixologik moslashuvi, jumladan, ko'p madaniyatli ta'lif va inklyuziv ta'lif masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Amerika, Kanada, Avstraliya, Yevropa mamlakatlari va boshqalarda mehnat migratsiyasi sohasidagi tadqiqotlar tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Zamonaviy mehnat migratsiyasi migrantlar oqimining ko'payishi, ayollar va bolalar sonining ortishi, yangi mehnat migratsiyasini qamrab olish kabi jihatlar bilan ajralib turadi. XXI asrda migratsiya va mehnat migratsiyasi masalalari, xususan, Yevropa Ittifoqining kengayishi va Sharqiy Yevropaning bir qator davlatlari uchun chegaralarning ochilishi munosabati bilan Yevropa davlatlari uchun ayniqsa dolzarb bo'lib qoldi.

Yevropa Ittifoqining kengayishi munosabati bilan Yevropa davlatlari nafaqat yangi mamlakatda o'z o'rnini egallash niyatida kelgan migrantlarning moslashuviga oid qiyinchiliklar, balki konstruktiv rivojlanishni ta'minlaydigan maxsus dasturlarni ishlab chiqish bilan bog'liq muammolarga ham duch kelmoqda. Yevropa Ittifoqining kengayishi va Yevropa mamlakatlari o'rtasida chegaralarning yo'qligi tufayli mehnat migratsiyasi va uning tipologiyasi kengaydi, u yanada xilma-xil bo'ldi.

Umuman olganda, shuni aytishimiz mumkinki, migratsiya bo'yicha barcha tadqiqotlar u yoki bu tarzda uchta asosiy yo'nalishga ta'sir qiladi: migratsiya sabablari yoki asoslari; ko'chib o'tishning migrantning holatiga ta'siri, shuningdek, migratsiyaning migrantlar kelib chiqishi va migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatga ta'siri¹⁰. Migratsiya, ayniqsa immigrantlar uchun, shaxslar hayotida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Immigrantlar ruhiy salomatlik bilan bog'liq bir qancha muammolarga duch kelishi mumkin bo'lsa-da, psixologiya va psixiatriya kabi ruhiy salomatlikni tekshiradigan fanlar bu masalaga yetarlicha qiziqish bildirmadi. Immigrantlarning muammolarini aniqlash mezbon jamiyatga ularning muammolarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotlarda immigrantlar muammolari uch bosqichda ko'rib chiqiladi: migratsiyadan oldingi, migratsiya va migratsiyadan keyingi.

Xulosa. Migratsion jarayonlarning oilaviy barqarorlik darajasiga ta'siri farzandlar va ota-on munosabatlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Yaqin insonlarining boladan uzoqlashishi nafaqat uning ruhiy holatiga, balki o'qishi, turmush tarzi, shuningdek jismoniy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatar ekan. Yoshligida bola oddiy hissiyotlarni boshdan kechiradi. Yoshi ulg'aygani sayin u asta-sekin murakkab narsalarga duch keladi

¹⁰ Zuberi D., Ptashnick M. In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada // International Migration. – 2012. – Vol. 50. – № 1. – P. 60–93.

va ularni og‘zaki bo‘lmagan vositalar yordamida ifodalaydi. Ulg‘ayish bilan ko‘pincha his-tuyg‘ularni ifoda etishni, hissiyotlarni nazorat qilishni va cheklashni, ularning sabablariga bo‘ysunishni istamaslik boshlanadi. Hissiy beqarorlik bolaga dunyonи yetarlicha idrok etishga, o‘z pozitsiyasini, dunyo bilan munosabatlar modelini shakllantirishga imkon bermaydigan buzilishlardir. Bunday muammolar odatda bolaning shaxsiy mojarolari fonida paydo bo‘ladi. Ota-onaning farzanddan uzoqda bo‘lishi undagi hissiy beqarorlik ko‘rsatkichining ortishiga olib keladi. Ayniqsa, o‘smirlik davrida bu holat xarakter aksentuatsiyasini keltirib chiqarib, bola shaxsida atrof-olamga nisbatan negativ fikrlar paydo bo‘lishini tezlashtiradi. Kuzatishlarimiz natijasida har bir migrant oila farzandlariga ota-onasining, yaqinlarining xorijda ekanligi o‘z ta’sirini ko‘rsatmasdan qolmaganini ko‘rshimiz mumkin. Migrant oilalar farzandlarining hayotida qo‘rquv, tashvish, tushkunlik mavjud. Ushbu davrning uzoq muddatli tajribasi ko‘pincha salbiy xulq-atvor reaksiyalariga olib keladi.

**Migrant oilalar
farzandlarining
hayotida qo‘rquv,
tashvish,
tushkunlik mavjud.
Ushbu davrning
uzoq muddatli
tajribasi ko‘pincha
salbiy xulq-atvor
reaksiyalariga olib
keladi.**

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Global commission on International Migration (2005). *Migration in an interconnected world: New Directions for action*. Geneva: Switzerland.
2. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/17361-demografik-holat-2021-yil-yanvar-dekabr>.
3. Karadogan S. *Effects of Globalization on International Labor migration*. Retrieved from: <https://www.academia.edu/5067214/ effects of globalization on international labor migration>.
4. Zuberi D., Ptashnick M. *In Search of a better life: The experiences of working poor immigrants in Vancouver, Canada* // *International Migration*. 2012. – Vol. 50. – № 1. – P. 60–93.
5. Отажонов А.А. Ўзбекистонда меҳнат миграцияси соҳасида кадрларни тайёрглаши ва уларнинг маълакасини оширишга доир айрим масалалар // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. – № 1. (2022) – Б. 116–121.
6. Почебут Л.Г. *Взаимопонимание культур: методология и методы этнической и кросс-культурной психологии. Психология межэтнической толерантности*. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2005. – 281 с.
7. Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. *Групповая работа с вынужденными мигрантами: тренинги толерантности, позитивного взаимодействия и социокультурной адаптации* // *Психология беженцев и вынужденных переселенцев: опыт исследований и практической работы*. – Москва: Смысл, 2001. – С. 208–224.
8. Солдатова Г.У., Шайгерова Л.А. *Психологическая адаптация вынужденных мигрантов* // *Психологический журнал*. – 2002. – Т. 23. – № 4. – С. 66 – 81.
9. Стефаненко Т.Г. *Этно психология: практикум*. – Москва: Аспект Пресс, 2006. – 208 с.
10. Хрусталева Н.С. *Психология миграционных процессов* // *Психология кризисных и экстремальных ситуаций: психическая травматизация и ее последствия*. – Санкт-Петербург: Изд-во СПбГУ, 2014. – С. 325–349.

**OILA, XOTIN-QIZLAR VA
IJTIMOIY HAYOT
СЕМЬЯ, ЖЕНШИНЫ И ОБЩЕСТВЕННАЯ ЖИЗНЬ
FAMILY, WOMEN AND SOCIAL LIFE**

elektron ilmiy jurnal
электронный научный журнал
electronic scientific journal

2/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-soni
“Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.
“Oila, xotin-qizlar va ijtimoiy hayot” jurnali “Ijtimoiy boshqaruv” jurnalining vorisidir.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy
masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni
tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации»
№ 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.
Журнал “Семья, женщины и общественная жизнь” считается продолжение журнала “Социальное управление”.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных,
фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных
вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and
Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.
The journal «Family, women and social life» is a continuation of the journal «Social management».

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific
and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions
of makhalla, family and gender equality.*

MUASSIS:

“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti

JURNAL TAHRIRIYATI:

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**

Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**

Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**

Jo‘rayeva M., Razzakova N.,

Sobirova E., Jabborov U.

Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**

Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**

Web dizayner: **Yakubov O.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.

Bosishga ruxsat etildi: 21.08.2022.

“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/8

Nashriyot bosma tabog‘i 11,6.

100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,

M.Ismoilov ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.